

Nasiba Kurbanbayeva

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Badiiy asarni tahlil qilishda shakl va mazmun masalasi alohida ahamiyatga ega. Ular hayotning barcha jabhalarida ajralmas birlik sifatida namoyon bo‘lgani kabi adabiyotda ham ajralmas birlikda mavjud bo‘ladi. Mukammal mazmun o‘z ifodasini topishi uchun uni hayotga olib keluvchi va moddiylashtiruvchi shaklni talab qiladi. Mazmun va shakl bir-biriga uyg‘un bo‘lgandagina asar mukammal bo‘ladi.

She‘rlar tahlilida Qozoqboy Yo‘ldoshevning quyidagi fikrlari ahamiyatlidir: “...tahlilda shakldan mazmun sari borilsa, asarning badiiy qatlamlariga chuqurroq kirish imkoni paydo bo‘ladi. Chunki badiiy asarning go‘zallik qirralari ko‘proq shaklda namoyon bo‘ladi va bu hol ilmiy tahlilni chegara bilmas darajada teranlashtirish imkonini beradi. Shaklning qirralari kashf etilgani sari undan chiqadigan badiiy mazmun chuqurlashib, xilma-xillashib boraveradi”¹. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda Halima Xudoyberdiyeva to‘rtliklarini tahlilga tortamiz.

Ko‘klam ham goh aldar, g‘o‘r, boli yo‘qdir,

Aldashga yozdayin dajjoli yo‘qdir.

Kuzdan bir amallab aldanmay o‘tsam,

Qishning aldashgayam majoli yo‘qdir.

Ma‘lumki hayot – har bir inson uchun berilgan sinov muddatidir. Undagi har bir kun, soat, daqiqani g‘animat bilib, uni foydali ishlar bilan o‘tkazmoqlik, oxirat uchun sa‘y-harakat qilib, xayrli amallarni bajarmoqlik har bir kishi uchun muhim. Zero, Imom Buxoriy rivoyatlarida keltirilishicha bo‘sh vaqtni g‘animat bilish haqida Payg‘ambarimiz mashhur hadisi shariflarida shunday deganlar: “Ikki (buyuk) ne‘mat borki, ko‘p odamlar ulardan g‘aflatda qoladilar. Ular – sihat-salomatlik va bo‘sh vaqtdir”.² Yuqorida keltirilgan to‘rtlikda insonning butun umri fasllar timsolida tasvirlab beriladi.

Bahor – qishki uyqudan keyin tabiatning uyg‘onish davri. Bahorni odatda gullab-yashnagan tabiat, qushlarning chug‘ur-chug‘uri, iliqlik kabi yoqimli tasvirlar bilan ko‘z oldimizda gavdalaniramiz. Bahor qayta tug‘ilish, umid va yangi hayot demakdir. Bahor – badiiy adabiyotda yoshlik va sevgi timsoli, insonning yosh, navqiron davrlari sifatida tasvirlanadi. Yoshlik davri inson hayotidagi eng g‘animat davr hisoblanadi. Ayni kuch va shijoatga to‘lgan, hamma narsaga qiziquvchan va ishonuvchan davr. Shuning uchun ham lirik qahramon ayni paytda g‘o‘rligi tufayli gohida aldanadi. Badiiy adabiyotda bahor kunning ertalabki paytiga qiyoslanadi.

Yoz – yaraqlagan quyosh, issiqlik va xursandchilik davri. Yoz – gullagan dalalar, yam-yashil daraxtlar, qushlarning maftunkor ovozigacha burkangan tabiat. Yoz hayotiylik, erkinlik va quvonch ramzi, baxt va hayotdan zavqlanish davri sifatida tasvirlanadi hamda kunga qiyos etiladi. Yuqoridagi misrada shoir “Aldashga yozdayin dajjoli yo‘qdir”, – deydi. Dajjol so‘zi O‘zbek tilining izohli lug‘atida “iblis”, “shayton” ma‘nolarida ifodalanadi. Demak, yoz fasli inson hayotining shayton yo‘ldan ozdirishga moyil bo‘lgan davrlariga nisbat beriladi.

¹Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak. 2016. – B.123

² www.sammuslim.uz

Kuz – yig‘im-terim, hosildorlik davri hamda qishga tayyorlanish pallasi. Badiiy adabiyotda kuz to‘kilgan barglar, o‘zgaruvchan havo, salqin esuvchi shamol kabi tasvirlarda gavdalaniriladi. Kuz – go‘zallik va yoshlikning o‘tishini ifodalovchi tasvir hamdir. Kunning kech paytiga qiyoslanadi hamda inson hayotining keksalik davrlarini ifodalaydi. Shoir kuzdan ham bir amallab aldanmay o‘tib olish ilinjida. Sababi qishning aldashgayam majoli yo‘q. Qish – qor, sovuq va muzlagan tabiatni aks ettiradi. Badiiy adabiyotda qish oppoq rangga burkangan tabiat, ayoz hamda sukunat tasvirlari bilan ifodalanadi. Qish inson umrining kechasi, qarilik davrlari. Shu boisdan qishning aldashgayam majoli yo‘q.

She‘r shaklan to‘rt misradan iborat bo‘lsada, unga teran falsafiy fikrlar, bir necha bandli she‘rga teng keladigan mazmun singdirilgan. “Shakl konservativroq hodisa bo‘lganligidan uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega. Mazmun esa o‘zgaruvchanlikka moyil hodisa bo‘lib, har bir badiiy asar mazmunan o‘zicha originaldir. Sababi, o‘sha asarni yaratgan ijodkor – Individ, u dunyoni o‘zicha ko‘radi va baholaydi. Shunga ko‘ra, hatto oshkor taqlidiy ruhdagi asar ham mazmunan original (mazmunan originallik bu o‘rinda ijobiy baho ma‘nosida emas, balki umuman o‘ziga xoslik, boshqalarga aynan o‘xshamaydigan degan ma‘noda tushuniladi) sanaladi.”³ Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatning qaysi shaklida ijod qilmasin, mazmun bilan uyg‘unlashgan holda go‘zal ijod namunasini yarata olgan ijodkor. Qaysi poetik shaklda yozmasin, inson ichki kechinmalari betakror talqinda ifodalaganligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak. 2016. – B.123
2. www.sammuslim.uz
3. D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.Navoiy universiteti. 2018. – B.92

³D.Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.Navoiy universiteti. 2018. – B.92